XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-iyul VII-11-103-12-0-K/25 Xorazm viloyati

“Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun narxlar (tariflar)ni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-sonli Farmoniga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. “Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori B.Kurbanovning axboroti, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining tegishli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan taklif etilayotgan ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024 yil 20-martdagi “Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun narxlar (tariflar)ni belgilash to‘g‘risida”gi VI-75-31-12-0-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (D.Bekchanova), viloyat teleradiokompaniyasi (O‘.Matqurbanov)hamda “Xorazm haqiqati” gazetasi tahririyati (S.Raximberganova)ga ushbu qarorni rasman e’lon qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2025-yil 28-iyuldagi
VII-11-103-12-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

“Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun narxlar (tariflar)

Xizmat turi	**O‘lchov birligi**	**Narx** (QQSsiz) (so‘m)
Aholi, budjet tashkilotlari va ulgurji iste’molchilar uchun ichimlik suvi ta’minoti xizmati	1 m^3	10 600
Abonent to‘lovi	oylik	15 600